

Murabbiylar bilan uchrashuv

"Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakultetida 2020 yil 27 fevral kuni institut murabbiylar Kengashi raisi Z.Ismailova, yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Z.Xaydarov, fakultet dekani A.Isaqov, fakultet bosh murabbiysi O'.Xalqnazarov, yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchilari, murabbiylar Kengashi kotibi X.Tuychiev va fakultet murabbiylari bilan uchrashuv o'tkazdi.



Uchrashuvda institut murabbiylar Kengashi raisi Z. Ismailova O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining buyruq va hay'at qarorlarining bajarilishi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida qo'yilgan masalalar hamda institut Ilmiy Kengashi qarorlari bajarilishining tahlili to'g'risida ma'lumot berib o'tdi. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Z.Xaydarov murabbiylarining ish jarayonidagi muammolari, tajribalari, olib borilayotgan ish uslublari va natijalari murabbiylilik ishlarini takomillashtirish yuzasidan bir qancha takliflar bo'yicha suhbat o'tkazildi.



Fakultet dekani A.Isaqov barcha murabbiylarga guruhlarda olib borilayotgan ishlar yuzasidan fikrlar bildirib talabalar bilan yanada ko'proq ishlash kerakligi bo'yicha ta'kidlab o'tdi. Uchrashuv jarayonida murabbiylar tomonidan savollar, fikrlar, takliflar bildirildi. Ularga Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Z.Xaydarov, institut bosh murabbiysi Z.Ismailovalar yetarlicha javob berdilar.

TIQXMMI matbuot xizmati